

**DUNYO NE'MATLARI VA OXIRAT MAS'ULIYATI: IMOM TERMIZIY
RIVOYATLARI ASOSIDA**

**WORLDLY BLESSINGS AND THE RESPONSIBILITY OF THE HEREAFTER:
BASED ON THE NARRATIONS OF IMAM TERMIZIY**

**МИРСКИЕ БЛАГА И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ЗАГРОБНУЮ
ЖИЗНЬ: НА ОСНОВЕ РАССКАЗОВ ИМАМА ТЕРМИЗИИ**

Ahad Raymberdiyev

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

*"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrasini tayanch
doktoranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqola Imom Termiziy rivoyatlari asosida dunyo ne'matlari va oxirat mas'uliyatini yoritadi. "Al-Haqq" va Qur'on oyatlari bilan bog'liq hadislar tahlil qilinib, insonning dunyodagi boylik va ne'matlar bilan muomala qilishi, oxirtdagi hisob-kitobga tayyorgarligi muhokama qilinadi. Hadislar arabcha matni, tarjimasini va sharhi bilan keltirilib, ularning zamonaviy ahamiyati, ma'naviy va axloqiy ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, Imom Termiziyning ilmiy merosi, hadislarini tasniflash va tafsiri qarashlari ham ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Imom Termiziy, hadis, dunyo ne'matlari, oxirat mas'uliyati, Qur'on tafsiri, ma'naviy tarbiya, axloqiy mas'uliyat, "Sunan"*

Abstract. *This article highlights worldly blessings and the responsibility of the Hereafter based on the narrations of Imam Termiziy. The study analyzes hadiths related to "Al-Haqq" and the Qur'an, discussing human conduct with worldly wealth and the preparation for accountability in the Hereafter. The hadiths are presented with Arabic text, translation, and commentary, emphasizing their contemporary relevance and spiritual and ethical significance. The article also explores Imam Termiziy's scholarly legacy, his methodology in classifying hadiths, and his interpretive perspectives.*

Keywords. *Imam Termiziy, Hadith, worldly blessings, accountability in the Hereafter, Qur'anic exegesis, spiritual education, moral responsibility, Sunan*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются мирские блага и ответственность за загробную жизнь на основе преданий Имама Теризий. Анализируются хадисы, связанные с понятием «Аль-Хакк» и Кораном, обсуждается поведение человека с мирскими благами и подготовка к отчету в Ахирете. Хадисы представлены с арабским текстом, переводом и*

комментариями, подчеркивается их современная актуальность и духовное и нравственное значение. Также рассматривается научное наследие Имама Теризий, его методика классификации хадисов и толкования.

Ключевые слова. *Имам Теризий, хадис, мирские блага, ответственность в Ахирете, толкование Корана, духовное воспитание, нравственная ответственность, Сунан*

KIRISH

Islom dini insoniyatni ikki dunyo saodatiga yetaklovchi dindir. Unda Qur’oni Karim va hadislar asosiy manba sifatida e’tirof etiladi. Qur’on oyatlari ilohiy kalom sifatida musulmonlarga hayotiy ko’rsatmalar beradi, hadislar esa ushbu oyatlarning tafsiri va amaliy izohlarini beradi. Shu bois, hadis ilmi Qur’onni to’g’ri tushunish va diniy-amaliy hayotni to’g’ri yo’lga solishda muhim o’rin tutadi.

Muhaddislar orasida Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (h.209–279/m.824–892) alohida o‘rin tutadi. U o‘zining mashhur “Sunan” asari orqali hadislarni fihiy boblar tartibida jamlagan. Bu asar “Kutub as-sitta” tarkibiga kiradi va fihiy hamda ma’naviy masalalarni chuqur yoritadi.

ASOSIY QISM.

“Takasur” surasi Qur’oni Karimning 102-surasidir. U sakkiz oyatdan iborat bo’lib, insonlarni dunyoga haddan tashqari berilib ketish va boylik bilan faxrlanish oqibatida oxiratni unutib qo’yishdan ogohlantiradi. Imom Termiziy o‘z “Sunan” asarida ushbu suraga oid bir nechta hadislarni keltirib, oyatlarning tafsirini hadis ilmi bilan mustahkamlab beradi¹.

حدثنا محمود بن غيلان حدثنا وهب بن جرير حدثنا شعبة عن قتادة عن مطرف بن عبد الله بن الشخير عن أبيه أنه انتهى إلى النبي ﷺ وهو يقرأ { ألهاكم التكاثر } قال يقول بن آدم مالي مالي وهل لك من مالك إلا ما تصدقت فأفضيت أو (3354) أكلت فأفنيته أو لبست فأبليت

Payg‘ambar (s.a.v) dedilar: “Bandasi: ‘Molim, molim’, deydi. Holbuki, sening molingdan foyda beradigan uch narsa bor: sadaqa qilib yuborganing, yeb tugatganing va kiyib eskirtirganing.”

Bu hadis suraning asosiy mazmunini ochib beradi. Inson ko'p mol-dunyo yig'ish bilan mashg'ul bo'lib, haqiqiy hayot – oxiratni unutadi. Holbuki, molning inson uchun haqiqiy foydasi faqat uch narsada ko'rinadi: Alloh yo'lida sadaqa qilishi, o'zi iste'mol qilishi va kiyib foydalanishi. Qolgan barcha yig'ilgan boylik qabr ortida hech qanday naf bermaydi. Zamonaviy jamiyatda moddiy boylik ortidan quvish insoniyatning eng katta muammolaridan biriga aylandi. Turli iqtisodiy inqirozlar, korrupsiya va adolatsizliklar ham aslida insonning dunyo boyligiga haddan tashqari qiziqishi natijasidir. Ushbu hadis insonlarni mol-dunyoga emas, balki ma'naviyat va oxirat uchun foydali amallarga e'tibor berishga chaqiradi.

¹ Shamsuddin Zahabiy. Siyaru a'laamin nubala. – Bayrut, Muassasatur risala, 1993. J. 12. – B. 521;

حدثنا أبو كريب حدثنا حكام بن أسلم الرازي عن عمرو بن أبي قيس عن الحجاج عن المنهال بن عمرو عن زر عن (3355) علي رضي الله تعالى عنه قال ما زلنا نشك في عذاب القبر حتى نزلت ألهاكم التكاثر

Hazrat Ali (r.a.) aytdilar: “Biz qabrdagi azob haqida shubhada edik. “Takasur” surasi nozil bo’lgach, endi shubhamiz qolmadi.”

Hadisda sura qabr azobi masalasida ochiq dalil bo’lgani ta’kidlanmoqda. Bu suraning oyatlari insonning dunyo boyligi va nafs istaklari uni Allohning zikridan chalg’itishini, oxiratda esa buning uchun javobgarlik borligini eslatadi. Shuning uchun qabr hayoti va azobi haqdir. Ba’zi zamonaviy oqimlar va shaxslar qabr azobini inkor etishadi. Ushbu hadis esa qabr azobi haqiqiy ekanligini ko’rsatadi. Bu musulmonlarni hayotini mas’uliyat bilan o’tkazishga, oxirat uchun tayyorlanishga chaqiradi.

حدثنا بن أبي عمر حدثنا سفيان بن عيينة عن محمد بن عمرو بن علقمة عن يحيى بن عبد الرحمن بن حاطب عن عبد الله بن الزبير بن العوام عن أبيه قال لما نزلت { ثم لتسألن يومئذ عن النعيم } قال الزبير يا رسول الله فأني النعيم نسأل عنه (3356) وإنما هما الأسودان التمر والماء قال أما إنه سيكون

Zubayr ibn Avvom (r.a.) aytdilar: “Oyat ‘So’ngra o’sha kuni sizlardan ne’matlar haqida so’raladi’ nozil bo’lganda, men: “Yo Rasululloh, qaysi ne’matlar haqida so’ralamiz? Axir bizda faqat ikki narsa bor – xurmo va suv”, dedim. Rasululloh (s.a.v) dedilar: “Hozir shunday bo’lsa ham, keyinchalik (boshqa ne’matlar ham) bo’ladi’.”

Bu hadis Alloh taolo insonni eng oddiy ne’matlar – suv va xurmo uchun ham hisob-kitob qilishi haqida dalolat beradi. Agar o’sha davrda sahobalar oddiy xurmo va suvni ham ne’mat deb bilgan bo’lsalar, hozirgi zamondagi insonlar yanada ko’p ne’matlar ichida yashamoqda. Bugungi davrda odamlar katta ne’matlar – tinchlik, ilm, texnologiya, sog’liq, farovonlik kabi narsalarning qadriga yetmayapti. Bu hadis musulmonlarni ne’matlar uchun shukr qilishga undaydi.

حدثنا عبد بن حميد حدثنا أحمد بن يونس عن أبي بكر بن عياش عن محمد بن عمرو عن أبي سلمة عن أبي هريرة قال لما نزلت هذه الآية { ثم لتسألن يومئذ عن النعيم } قال الناس يا رسول الله عن أي النعيم نسأل وإنما هما الأسودان والعدو (3357) حاضر وسيوفنا على عواتقنا قال إن ذلك سيكون

Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: “Oyat nozil bo’lgach, odamlar: ‘Ey Rasululloh, bizdan qanday ne’matlar so’raladi? Bizda faqat xurmo va suv bor. Dushman qarshimizda turibdi, qilichlarimiz yelkamizda”, dedilar. Rasululloh (s.a.v) dedilar: ‘(Hozir shunday bo’lsa ham), keyinchalik boshqa ne’matlar bo’ladi’.”

Bu hadis ham yuqoridagi hadisni mustahkamlaydi. Inson eng kichik ne’matlar uchun ham javobgar. Hatto urush, qiyinchilik sharoitida ham inson Alloh bergan rizq va imkoniyat uchun shukr qilishga buyurilgan.

حدثنا عبد بن حميد حدثنا شبابة عن عبد الله بن العلاء عن الضحاك بن عبد الرحمن بن عازم الأشعري قال سمعت أبا هريرة يقول قال رسول الله ﷺ إن أول ما يسأل عنه يوم القيامة يعني العبد من النعيم أن يقال له ألم نصح لك جسمك (3358) ونرويك من الماء البارد

Abu Hurayra (r.a.) aytadilar: Rasululloh (s.a.v) dedilar: “Qiyomat kuni bandadan eng avvalo so’raladigan ne’mat – sog’liq va sovuq suvdir.²”

² Anvarshoh Kashmiriy. Arfu shaziy sharhi Sunani Termiziy. – Lubnon: Darul turosul arabiy, 2004. – J. I. – B. 321.

Bu hadis sog'liq va suvning eng ulkan ne'mat ekanligini ko'rsatadi. Inson sog'lig'ini yo'qotmasdan turib uning qadriga yetmaydi. Suv esa hayotning manbai.

Bugungi kunda ko'plab insonlar sog'lig'ini asrashga e'tibor bermaydi, tabiat ne'matlarini isrof qiladi. Bu hadis ularni sog'liq va suvning qadriyatini anglashga chaqiradi.

MUHOKAMA

Imom Termiziyning "Sunan" asari tafsir bobida keltirilgan yuqoridagi hadislar chuqur tahlil qilinganda, ular Qur'on oyatlarining amaliy hayot bilan uzviy bog'liqligini namoyon qiladi. Rasululloh ﷺ hadislarida Qur'oni karim oyatlarining izohi faqatgina nazariy tushuncha emas, balki ijtimoiy hayot, ma'naviy tarbiya, axloqiy masalalar va shaxsiy muomala qoidalariga ham taalluqlidir. Bu jihatdan hadislar tafsir ilmi uchun eng asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

- hadislar Qur'onda mujmal (umumiy) tarzda kelgan oyatlarni tafsil qiladi. Masalan, ibodat, axloq va muomala qoidalar bilan bog'liq oyatlarda ayrim hukmlar umumiy shaklda berilgan bo'lsa, hadislar ularni aniqlashtiradi. Bu hol Qur'oni karimning hayotiy qo'llanmasini musulmonlar uchun aniq va tushunarli qiladi.

- hadislarining sharhi Qur'onni faqatgina til darajasida emas, balki amaliy hayot darajasida talqin etishga xizmat qiladi. Termiziy keltirgan hadislar orqali oyatlarning haqiqiy mohiyati namoyon bo'ladi. Masalan, Niso surasiga oid hadislar insonlar o'rtasida adolat, halollik, oila va jamiyatlardagi mas'uliyat kabi masalalarni chuqurroq tushuntiradi.

- hadislarining bugungi kun uchun ahamiyati ham juda katta. Chunki zamonaviy ijtimoiy hayotda turli axloqiy va ma'naviy muammolar ko'payib borar ekan, Qur'on va hadislar ularni hal qilishda eng asosiy manba bo'lib qolmoqda. Masalan, bugungi kunda jamiyatda oilaviy ajrimlar, yoshlarning yengil-elpi hayotga berilib ketishi, adolatsizlik kabi holatlar ko'p uchramoqda. Termiziy hadislarida esa bu kabi illatlardan ogohlantirish va ularga qarshi yechimlar berilgan.

- hadislar musulmon ummati birligini saqlash, mo'minlarning bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatishi, fitna va ixtiloflardan uzoq bo'lishiga da'vat qiladi. Qur'oni karimning ushbu ruhiy-ma'naviy maqsadlari hadislar orqali yanada ochiq-oydin ko'rinadi. Shu jihatdan, Imom Termiziy hadislarining bugungi kunda tinchlik, totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda o'rni beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, "Sunan" tafsir bobida keltirilgan hadislar Qur'on oyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi, ularni amaliy hayotga tatbiq etish yo'lini ko'rsatadi va bugungi kunda ham musulmonlar uchun eng dolzarb manba sifatida ahamiyatini saqlab qolmoqda.

XULOSA

Imom Termiziy "Sunan" asarida keltirilgan hadislar, xususan, "Takasur" surasi bilan bog'liq rivoyatlar insonning dunyo va oxirat hayotiga doir eng muhim ma'naviy saboqlarni yoritib beradi. Ushbu hadislarining asosiy g'oyasi – insonni Alloh bergan

ne'matlarni qadrlashga, ularni to'g'ri yo'lda ishlatishga, behuda faxrlanish va dunyo boyliklari bilan mashg'ul bo'lib qolmaslikka undashdir. Rasululloh (s.a.v) hadislarida ochiq-oydin qilib aytiladiki, inson mol-mulkka "meniki, meniki" deya bog'lanadi, ammo undan amalda faqat uch narsani foydalana oladi. Ya'ni sadaqa qilib o'tkazganini, o'zi yeyib tugatganini va kiyib eskirtganini. Qolgan barcha boylik esa oxiratda uning zimmasiga mas'uliyat bo'lib qoladi.

Bu hadislarining bugungi hayotimiz uchun ham dolzarbligi beqiyosdir. Hozirgi zamon jamiyatida moddiy boylik, martaba va tashqi ko'rinish bilan faxrlanish illati keng tarqalgan. Natijada ko'plab odamlar qalb pokligi, ruhiy halovat va ma'naviy kamolotdan uzoqlashmoqda. Imom Termiziy keltirgan ushbu hadislar esa insonni hayotning haqiqiy qadriyatlari - sog'liq, toza suv, halol rizq, oilaviy tinchlik va ma'naviy barkamollikka qaytaradi. Payg'ambarimiz ﷺ "Qiyomat kuni eng avval so'raladigan ne'mat - sog'liq va sovuq suvdur" deganlari ham shuni tasdiqlaydi. Demak, eng oddiy, ammo eng ulug' ne'matlar - insonning e'tiborsiz qoldiradigan narsalarida yashiringan.

Hadislarining sharhidan ko'rinadiki qabr azobi va oxiratda hisob-kitob masalasi bejiz emas. Alloh taolo har bir insonni o'zining imkoniyatlari, ne'matlaridan qay darajada foydalangani, ularni isrof qilgan-qilmaganiga qarab sinaydi. Bu esa har bir musulmonni mas'uliyat, shukronalik va adolat tamoyillariga asoslangan hayot kechirishga chorlaydi.

Imom Termiziy "Sunan" asaridagi mazkur hadislar insoniyatni o'zini o'zi tanishga, dunyo lazzatlari ortidan ko'r-ko'rona quvmaslikka, hayotning haqiqiy ma'nosini anglashga da'vat etadi. Bu rivoyatlar Qur'on oyatlarining amaliy sharhi sifatida insonni ogohlikka, o'z nafsini nazorat qilishga, jamiyatda mehr-oqibat va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, ularning ilmiy, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati bugungi kunda yanada ortib bormoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Iso Muhammad at-Termiziy. Sunani Termiziy./ Tarjimon, sharh va izohlar muallifi: Mirzo Kenjabek. – T.: Sharq, 2010.
2. Shamsiddin Muhammad Zahabiy. Kitob Tazkirat al-huffoz. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1998.
3. Shihobuddin Abulfazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloni. Tahzib at-tahzib. – Bayrut: Muassasat ar-risala, 1996. – J. III.
4. Anvarshoh Kashmiriy. Arfu shaziy sharhi Sunani Termiziy. – Lubnon: Darul turosul arabiy, 2004. – J. I.
5. Ibn Hajar al-Asqaloni. Tahzib at-tahziyb. Dorul fikr, 1984. J. 9.
6. Shamsuddin Zahabiy. Siyaru a'laamin nubala. – Bayrut, Muassasatur risala, 1993. J. 18. – B. 513;